

O‘ZBEKISTONDA EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHISH CHORALARI

F.N. Muxammedov

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: maqolada ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish zaruriyati, mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan profilaktik chora-tadbirlar, ekstremizm va terrorizmga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ekstremizm, terrorizm, profilaktika, ijtimoiylashuv, qarshi kurashish, davlat siyosati.

Аннотация: В статье говорится о необходимости борьбы с экстремизмом и терроризмом, о принимаемых в этом направлении профилактических мерах, а также о работе по устранению условий, способствующих проявлению экстремизма и терроризма.

Ключевые слова: экстремизм, терроризм, профилактика, социализация, противодействие, государственная политика.

Har qanday demokratik huquqiy davlatda xavfsizlik, tinchlik va ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqarorligini ta‘minlash barcha islohatlar asosi hisoblanadi. Shu sababli, mintaqadagi terrorizm va ekstremizm xavf-xatarlarining milliy xavfsizlikka tahdidlarini inobatga olgan holda, mamalakatimizda ushbu tahdidlarga qarshi kurashishning mustahkam huquqiy va institutsional asoslari yaratildi.

Ushbu islohatlar davomi sifatida, mamlakatimizda xavfsizlikni ta‘minlash va unga bo‘lgan tahdidlarni pereventiv choralar orqali bartaraf etish, – Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti islohotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. So‘nggi yetti yilda mamlakatimizda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirishga asosiy e‘tibor qaratildi. Bunda, yoshlarda mustahkam immunitetni shakllantirish, muqaddam ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etgan fuqarolar va ularning oila a‘zolarining ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, ularning turmush tarzidagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish, aholini yot g‘oyalardan saqlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish kabi choralar ko‘rildi.

Ayniqsa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida ekstremistik va terroristik g‘oyalar tarqalishini oldini olish uchun yoshlarni madaniyat, san‘at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlashni o‘z ichiga olgan besh muhim tashabbus amalga oshirildi.

Shuningdek, oxirgi yetti yilda maktabgacha ta'lim bo'yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga, oliygohlar sonini 77 tadan 212 taga yetkazishga erishildi. Bu o'z navbatida inson kapitali rivojlanishiga hissa qo'shib, fuqarolarni yot g'oyalar ta'siriga tushishini oldini oladi [1].

Bugungi kunda O'zbekistonda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, mavjud normalar terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish yo'nalishidagi tahdidlardan kelib chiqib, doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Jumladan, 2017-yil 7-fevral kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" muhim ahamiyat kasb etib, unda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish, ayniqsa, yoshlarni diniy ekstremizm, aqidaparastlik kabi buzg'unchi harakatlar ta'siridan asrash choralari belgilandi. Shunga ko'ra, mahallalar va ta'lim muassasalarida "Islom ma'rifati aqidaparastlikni qoralaydi" va "Diniy ekstremizm va terrorizm – yoshlar kelajagiga tahdid" mavzularida uchrashuv hamda davra suhbatlari tashkil etildi [2].

Yangi davr talablaridan kelib chiqqan holda 2018-yilning 30-iyul kuni O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunda ekstremizmga qarshi kurashish sohasida davlat siyosati, ekstremizmni oldini olishga doir chora-tadbirlar, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalari, ekstremizmga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi davlat organlari tarkibi va ularning ushbu sohadagi vazifalari aniq ko'rsatib o'tildi.

2018-yilning 19-sentabr kuni terrorchilik va ekstremistik tashkilotlar safiga adashib kirib qolgan fuqarolarni jinoiy javobgarlikdan ozod etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5542-sonli Farmoni qabul qilinib, qo'li qonga botmagan, o'z qilmishidan pushaymon bo'lgan, Respublika hududidan tashqarida bo'lgan, o'z qilmishining huquqqa xilofligini anglab yetgan va tuzalish yo'liga o'tgan fuqarolarni jinoiy javobgarlikdan ozod etish hamda oilasi bag'riga qaytishining huquqiy asoslari yaratildi [3].

O'zbekiston tarixida birinchi marta, 2021-yil 1-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6255-sonli Farmoni bilan "2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Unda vatanparvarlik, an'anaviy qadriyatlar va bag'rikenglik

mafkurasini targ'ib qilish, voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g'oyalari tarqalishining oldini olish, ushbu sohada ayollarning rolini kuchaytirish, uzoq muddat xorijda bo'lgan fuqarolarni yot g'oyalardan himoya qilish, Internet jahon axborot tarmog'idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarini keng jalb qilish, ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etganlik hamda ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta'qib va javobgarlikka tortish choralari takomillashtirish, sohaning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish, xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish kabi vazifalar belgilandi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyun kunidagi "O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6252-son Farmoni qabul qilinib, unda ekstremizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarning huquqiy asoslari yaratildi.

Shu bilan birgalikda, 2022-yil 28-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilinib, uning 82-maqсадida ekstremizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish belgilandi. Bunda, ekstremizmga qarshi kurashishda preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, yot g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslar bilan tizimli ishlash, ularning muammolarini bartaraf etish, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ekstremizmni moliyalashtirishga qarshi kurash borasida xorijiy davlatlar bilan tajriba almashish, bu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etish va boshqalarni keltirib o'tish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasida BMT, YeHXT, ShHT va MDH kabi ko'plab xalqaro tashkilotlar hujjatlarini, xususan BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan asosiy 13 ta hujjatini ratifikatsiya qilib, ulardagi majburiyatlarni izchil bajarib kelmoqda. Ushbu tashkilotlar bilan xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda sohaning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, maxsus operatsiyalar o'tkazish, xodimlari malakasini oshirish, ilg'or tajribalarni almashish va tadqiqotlar o'tkazish kabi qator hamkorliklar amalga oshirilmoqda.

Masalan, AQSh va boshqa hamkor davlatlar ko'magida Suriya, Iroq va Afg'onistonda og'ir ahvolga tushgan 438 nafar ayollar va bolalar O'zbekistonga olib kelindi. Jumladan, "Mehr" insonparvarlik operatsiyasi doirasida 2019 yilda Suriyadan 156 nafar, asosan, ayollar va bolalar, shu yili Iroqdan

64 nafar bola, 2020 yilda Suriyadan 25 nafar ayol va 73 nafar bola, 2021 yilda 24 nafar fuqaro Afg'onistondan hamda shu yil 24 nafar ayol va 69 nafar bolalar Suriyadan O'zbekistonga qaytarildi [5].

Davlatimiz xalqaro darajada ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish borasida bir qator tashabbuslarni ilgari surayotganligini alohida e'tirof etish lozim.

Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekanini ta'kidlab, "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiya qabul qilishni ilgari surdilar [6].

Xalqaro hamjamiyat bu taklifni bir ovozdan ma'qullab, BMT tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" to'g'risidagi rezolyusiya qabul qildi. Ushbu rezolyusiya jahonda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalasini ilgari surgani bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, terrorizm va ekstremizmga birgalikda qarshi kurashish, Afg'onistonda urishni to'xtatish va tinchlikni saqlash, Markaziy Osiyo mintaqasida BMT Aksilterror boshqarmasining ofisini ochish, Markaziy Osiyoda kiberterrorizm bo'yicha Yagona elektron tizimni yaratish, axborot makonida ekstremizm va terrorizmning turli ko'rinishlariga qarshi samarali kurashish imkonini beruvchi yagona xalqaro huquqiy mexanizmlarni yaratish, BMTning Aksilterror boshqarmasi shafeligida Markaziy Osiyo mamlakatlarining yetakchi mutaxassislari orasidan Mintaqaviy ekspert kengashini ta'sis etish, Samarqand shahrida doimiy faoliyat yuritadigan Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari Yoshlari kengashini chaqirish, BMT shafeligida yuqori darajadagi "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" konferensiyasini o'tkazish hamda konferensiya yakunlari bo'yicha BMTning Maxsus rezolyusiyasida mustahkamlab qo'yilgan g'oyalarni ilgari surish yo'lida amaliy hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash kabilarni keltirib o'tish mumkin.

O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan ushbu tashabbuslarni amalga oshirilishi nafaqat mintaqa xavfsizligini, balki global xavfsizlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda kuzatilayotgan ekstremizm va terrorizm xavf va tahdidlardan kelib chiqqan holda qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi va hozirda takomillashtirib borilmoqda. Asosiy e'tibor ekstremizmni aniqlash va ushbu turdagi huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarni jazolashga emas, balki ekstremizm paydo bo'lishi va rivojlanishiga imkon berayotgan omillarni aniqlash va bartaraf etish, yoshlarni ma'rifat asosida tarbiyalash, bandligini ta'minlash, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ilg'or tajribalarni joriy qilish, ushbu

munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilganligini e'tirof etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta'lim yo'nalishlaridagi vazifalar bo'yicha axborot berildi. 24.12.2024 // <https://president.uz/uz/lists/view/7782>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilning 19-sentabr kunidagi "Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5542-sonli Farmoni;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi "2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6255-sonli Farmoni;
5. Almatov S.Z., Destruktiv g'oyalar tushunchasi hamda ushbu g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslarning tasniflanishi. // YANGI O'ZBEKISTON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 1-JILD, 12-MAXSUS SON (YO'ITJ). – 2024 y. – B. 139.
6. Rahimov M., BMTning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasining mohiyati va ahamiyati. 11 dekabr 2021 // <https://yuz.uz/news/bmtning-marifat-va-diniy-bagrikenglik-rezolyutsiyasining-mohiyati-va-ahamiyati>